



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 16-sentabr

459-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 11-sentyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan to‘rtinchi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-avgustdagi PF–132-son Farmoni ijrosi haqida”gi 417-6-0-Q/24-sonli qarori haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan to‘rtinchi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-avgustdagi PF–132-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 11-sentyabrdagi 417-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 11-sentyabrdagi 417-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi PF–132-son Farmoni bilan:

Tadbirkorlar bilan keng muhokamalarda bildirilgan taklif va tashabbuslar asosida ishlab chiqilgan va ularni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha 5 ta yo‘nalishdan iborat O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2024-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish dasturi doirasida quyidagilar:

ishlab chiqiladigan qonunchilik hujjatlari loyihalari ro‘yxati (keyingi o‘rinlarda — Ro‘yxat) 1-ilovaga muvofiq;

amaliy tadbirlar rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Vazirlik va idoralar rahbarlariga Farmonga 1-ilovaga muvofiq qonunchilik hujjatlari loyihalari sifatli va o‘z vaqtida ishlab chiqilishi, kelishilishi va o‘rnatilgan tartibda kiritilishi, shuningdek, mazkur Farmonga 2-ilovaga muvofiq tadbirlar so‘zsiz bajarilishi yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklanganligi;

topshiriqlarni to‘liq bajarmagan, kechiktirib bajargan yoki ijrosini ta‘minlamagan vazirlik va idoralar rahbarlariga topshiriq ijrosi muddati tugagan kundan boshlab ijrosi ta‘minlangunga qadar bo‘lgan muddatda rag‘batlantirish to‘lovlari to‘xtatilishi belgilanganligi;

shunday tartib o‘rnatilganki, unga muvofiq 2024-yil 1-noyabrdan:

davlat dasturlari asosida kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab- quvvatlashga barcha tijorat banklari va mikromoliya tashkilotlari jalb qilinishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son qaroriga asosan amalga oshirilayotgan “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturi doirasida kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan 100 million so‘mgacha garovsiz mikrokreditlarni qayta moliyalashtirish yoki ular bo‘yicha kafilliklar taqdim etish tartibini saqlab qolgan holda tijorat banklariga va mikromoliya tashkilotlariga o‘z resurslari hisobiga mazkur mikrokredit miqdorini 300 million so‘mgacha oshirishga ruxsat etilishi;

belgilanishicha:

a) eksport operatsiyalari bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplashda:

solliq to'lovchilardan O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan o'tkazish punktida joylashgan bojxona organining tovarlar belgilangan mamlakatga jo'natilganligini tasdiqlovchi belgisi qo'yilgan, tovarga ilova qilinadigan hujjatlarni solliq organlariga taqdim etish talab etilmasligi;

bojxona organlari tomonidan real vaqt rejimida elektron axborot almashinuvi vositasida solliq organlariga tovarlar bojxona chegarasini kesib o'tganligi to'g'risida taqdim etilgan ma'lumotlar tovarlar eksport qilinganligini tasdiqlash uchun asos bo'lishi;

bunda mazkur tartib ushbu Farmon kuchga kirgunga qadar bo'lgan davrdagi eksport operatsiyalari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rnini qoplash uchun taqdim etilgan arizalarga nisbatan ham tatbiq etilishi;

b) asbob-uskunalar va (yoki) butlovchi qismlar importiga oid kontraktida ularni yetkazib berish muddati 180 kundan ortiq etib belgilangan bo'lsa, mazkur operatsiya bo'yicha aktivlarni repatriatsiya qilish muddati sifatida kontraktida ko'rsatilgan yetkazib berish muddati e'tirof etilishi;

2025-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvarga qadar umumiy ovqatlanish korxonalariga foyda solig'i stavkasi 50 foizga kamaytirilishi;

2024-yil 1-oktyabrdan boshlab turoperatorlik va mehmonxona xizmatlarini, 2025-yil 1-yanvardan boshlab umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlariga 2028-yil 1-yanvarga qadar har oyning 25-sanasiga qadar

to'langan qo'shilgan qiymat solig'ining bir qismini quyidagi miqdorlarda respublika budjetidan qaytarish tizimi joriy etilganligi:

a) oylik tovar aylanmasining naqd pulsiz (to'lov terminallari yoki mobil to'lovlar orqali) qismi:

60 foizdan oshgan umumiy ovqatlanish korxonalariga — budjetga to'langan qo'shilgan qiymat solig'ining 40 foizi;

60 foizdan kam umumiy ovqatlanish korxonalariga — budjetga to'langan qo'shilgan qiymat solig'ining 20 foizi;

b) turoperatorlik va mehmonxona xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlariga — budjetga to'langan qo'shilgan qiymat solig'ining 20 foizi;

2025-yil 1-yanvardan boshlab davlat xaridlarini (korporativ buyurtmachilarning tijorat maqsadlarida amalga oshiriladigan davlat xaridlaridan tashqari) amalga oshirishda tovarning o'zlashtirish darajasidan kelib chiqib ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yilishi. Bunda mazkur tizim Elektron kooperatsiya portali bilan bir qatorda davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portali vositasida barcha davlat xaridlari elektron tizimlarida joriy etilishi;

belgilanishicha:

2024-yil 1-noyabrdan boshlab barcha uchun ochiq holatda yuritiladigan Inson hayoti va sog'lig'iga yuqori xavf soluvchi omillar reestri (keyingi o'rinlarda — Reestr) joriy qilinishi;

2025-yil 1-yanvardan boshlab nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini to'xtatib turishga faqatgina Reestrda kiritilgan omillar asosida yo'l qo'yilishi, bundan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini sud tartibida hamda qonunda belgilanadigan asoslar bo'yicha to'xtatib turish holatlari mustasno ekanligi;

2025-yil 1-yanvardan boshlab nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida huquqbuzarlik sodir etish xavfini aniqlash bo'yicha "Xavfni tahlil qilish" elektron tizimi joriy etilishi. Bunda tekshiruv va profilaktika tadbirlarini tashabbus etish ushbu tizim natijalari asosida amalga oshirilishi belgilanganligi;

Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash bo'yicha idoralararo komissiyaga tashqi savdodagi tarif va notarif choralarni Jahon savdo tashkiloti talablari asosida vaqtincha tartibga solish bo'yicha qarorlar qabul qilish vakolati berilganligi;

shunday tartib o'rnatilganki, unga muvofiq:

Adliya vazirligi Hisob palatasi bilan birgalikda har oyda amaliy tadbirlar rejasi va Ro'yxatda belgilangan vazifalarni amalga oshirish holatini o'rganib borishi, natijalari bo'yicha ma'lumot va topshiriqlar ijrosida yuzaga kelayotgan masalalar yechimi bo'yicha takliflarni Prezident Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga kiritib borishi;

amaliy tadbirlar rejasi va Ro'yxatda belgilangan vazifalarni amalga oshirish holati har oyda Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlislarida ko'rib chiqilishi, yuzaga kelayotgan muammolar yechimi bo'yicha hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklar uchun tegishli mas'ullarga choralar ko'rib borilishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Nazorat inspeksiyasi amaliy tadbirlar rejasi va Ro'yxatda belgilangan vazifalar mas'ul vazirlik va idoralar tomonidan belgilangan muddatlarda va sifatli ijro etilishini ta'minlashi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga 3-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qishloq xo'jaligi bo'limi (A.Xakimov), Savdo-sanoat palatasi tuman bo'limi (S.Egamberdiyev), Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Z.Jurabayev) manfaatdor idora va tashkilotlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi PF-132-son Farmonining 2-ilovasidagi "Amaliy tadbirlar rejasi"da nazarda tutilgan topshiriqlar o'z muddatida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlasin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov va tuman hokimining o'rinbosari – investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi boshlig'i Sh.Umaraliyev zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**